

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi – postindustrial jamiyat iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchidir

Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu, xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jiozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta va ahgamiyatlidir. Bu ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir.

Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining ajralmas qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan keyingi xizmatlardan iborat rivojlanayotgan tarmoqni talab qiladi.

Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

2019-yil 1-oktabr holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 22705 taga yetdi. Xizmatlar sohasida 14616 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning o'sishi 28,0 % ga oshdi.

2019-yil 1-oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3193 taga ko'paydi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ularning umumiy sonining uchdan ikki qismini tashkil etadi, bu 64,4 % ni tashkil etadi.

Taqqoslash uchun: kuzatilgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 15,3 %, qurilishda - 10,7 %,ni tashkil etdi va atiga 9,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-oktabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (37,2 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning soni 12,0 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi va xizmatlar sohasidagi tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ularning umumiy sonidagi ulushi 9,0 % ni yetdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.

2019-yil 1-oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-oktabr holatiga, xizmatlar sohasida 11423 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 32,4 %, tashish va saqlash - 9,8 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,6 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 4,3 %, axborot va aloqa - 1,8 %, boshqa turlar - 42,1 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmatlarlar sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, o'tgan yilga nisbatan, 2019-yil 1-oktabr holatiga ularning soni 3034 birlikga ko'paydi va 11266 birlikni tashkil etdi va 36,9 % ga oshdi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (3272 birlik) o'tgan yilga nisbatan 1848 birlikga ko'paydi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni (3093 birlik) 2003 birlikga ko'paydi.

Xizmatlar sohasida band bo'lgan yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlik



Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 781,8 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1 076,8 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 11,6 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati
111,6 %

Hajmi 1076,8
mlrd. so'mga
oshdi

Xizmatlar hajmi
5781,8
mlrd. so'm

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (172,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (112,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (109,3 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Moliyaviy xizmatlar



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



Ta'lim sohasidagi xizmatlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar




Transport xizmatlari



Savdo xizmatlari



Shaxsiy xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar



Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar



Boshqa xizmatlar



Ijara xizmatlari

Yuqori bo'lmagan o'sish kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2,6 %), shuningdek ijara xizmatlarida (1,8 %) kuzatildi.


**2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

| | Hajmi, mln. so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|--|-----------------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 5 781 832,4 | 111,6 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 277 059,6 | 113,6 |
| Moliyaviy xizmatlar | 801 675,3 | 172,7 |
| Transport xizmatlari | 1 448 125,2 | 104,5 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 1 326 226,7 | 102,2 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 257 830,7 | 102,9 |
| Savdo xizmatlari | 1 823 482,7 | 104,1 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 147 801,3 | 103,1 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 290 646,6 | 112,9 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 106 860,6 | 109,3 |
| Ijara xizmatlari | 151 445,9 | 101,8 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 123 953,9 | 102,6 |
| Shaxsiy xizmatlar | 122 315,9 | 103,9 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 77 142,3 | 103,2 |
| Boshqa xizmatlar | 153 492,4 | 102,2 |

Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohatlar chuqurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmatlar kabi xizmatlar turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida umumiy tarkibdagi ustun xizmat turlarining taqqoslanishi, %



O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi 276,7 mlrd. so'mga oshdi va 1 823,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Bundan tashqari, eng katta hajm transport xizmatlariga to'g'ri keldi - 1 448,1 mlrd. so'm, bu 191,4 mlrd. so'mga, shuningdek moliyaviy xizmatlar - 801,7 mlrd. so'm, ularning hajmi 354,6 mlrd. so'mga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlar tarkibida katta qismi savdo xizmatlariga to'g'ri keladi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 31,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng katta ulushni transport xizmatlari (25,1 %), moliyaviy xizmatlar (13,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (5,0 %) egallaydi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Xususan, savdo sohasida qisqa vaqt ichida uning kichik chakana tashkilotlari - chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, engil konstruktsiyali pavilonlar va yarmarka turlarining soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi imkon qadar tezroq hal qilindi, xaridor mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynaydi, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshiradigan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, shuningdek, ularning turlari va sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 31,5 % ni tashkil etib, bu 1 823,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rttdan uch qismidan ko'proq – 81,5 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismidan ko'prog'i Buxoro shahriga - 680,0 mlrd. so'm yoki 37,3 % ga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng katta hajm G'ijduvon – 240,3 mlrd. so'm (13,2 %), Buxoro - 118,5 mlrd. so'm (6,5 %) tumanlari hamda Kogon shahri - 105,0 mlrd. so'm (5,7 %) da kuzatildi.

Savdo xizmatlarining nisbatan past ulushi Qorovulbozor (1,5 %), Kogon (3,5 %), Shofirkon (3,7 %), Jondor (4,2 %) va Olot (4,4%) tumanlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlarining umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %




Ta'kidlash joizki, transport xizmatlari hajmining o'sishi, birinchi navbatda, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, Qurilish loyihalarini yanada amalga oshirish, bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish, shuningdek transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

Bugungi kunda respublikamiz transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga va barcha yo'nalishlarda hamda transportning barcha turlarida yuklar va yo'lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun noyob imkoniyatlarga ega. O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlarining hajmi 191,4 mlrd. so'mga oshdi va 1 448,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ulush Buxoro shahri (58,3 %), G'ijduvon (10,8 %), Qorovulbozor (4,0 %) tumanlari va Kogon shahri (3,6 %) da qayd etildi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlarining umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %




Transport xizmatlarining umumiy hajmida ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulush Shofirkon (2,0 %), Peshko' (2,2 %), Jondor (2,2 %) va Olot (2,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Bugungi kunda etakchi o'rinlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 801,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 354,6 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 88,4 % ni tashkil etadi.

So'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari va aloqa vositalari bilan to'yinganligi kuzatilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 277,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 13,6 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,8% ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 95,7 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari 2,0 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,5 %, axborotlashtirish xizmatlari - 0,6 %, boshqa xizmatlar - 1,2 % ni tashkil etishi qayd etildi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

70,5 mlrd. so'm

2018-yil yanvar-sentabr
220,1 mlrd. so'm



2019-yil yanvar-sentabr
290,6 mlrd. so'm

2019-yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 290,6 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 12,9 % ni tashkil etdi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:


uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-sentabr oylarida 217,7 mlrd. so'mga yetdi. Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu erda joylashganligidadir.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'm




2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etdi, hajmi esa 43,1 mlrd. so'mga oshdi va 257,8 mlrd. so'mga etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 84,6 % bilan ustunlik qiladi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Joriy yilning oldingi davri (yanvar-avgust) ga nisbatan yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 7,4 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 15,4 % ni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Viloyatda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.


Shunday qilib, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 18,8 mlrd. so'mga oshdi va 106,9 mlrd. so'mga etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Buxoro shahri egallaydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 50,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush G'ijduvon (8,8 %), Buxoro (8,7 %), Qorako'l (4,7 %) tumanlari va Kogon shahri (4,3 %) da qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi xizmatlarning ulushi nisbatan katta bo'lmagan Qorovulbozor (0,5 %), Kogon (1,5 %) va Olot (2,4 %) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida shahar va tumanlar o'sish sur'atlari hamda ulushining taqqoslanishi, %




Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 60,9 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eng katta ulush G'ijduvon (8,9 %), Buxoro (3,9 %), Vobkent (3,5 %) tumanlari va Kogon shahri (3,3 %) da qayd etildi.


2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlar tarkibi, %



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Qorovulbozor (1,7 %), Kogon (2,2 %), Shofirkon (2,3 %), Olot (2,4 %) va Jondor (2,5 %) tumanlarida belgilandi.

Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahri (113,5 %), Kogon (111,2 %), Jondor (109,8 %), G'ijduvon (109,6 %) va Shofirkon (109,5 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Qorako'l (107,6 %) tumani va Kogon shahri (107,6 %) da kuzatildi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


| | Hajmi, mln. so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % | Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm |
|------------------------|---------------------|---|--|
| Buxoro viloyati | 5 781 832,4 | 111,6 | 3034,4 |
| Buxoro tumani | 222 127,2 | 109,0 | 1352,8 |
| Vobkent tumani | 203 899,7 | 109,4 | 1478,6 |
| Jondor tumani | 145 983,1 | 109,8 | 847,8 |
| Kogon tumani | 125 929,5 | 111,2 | 1637,6 |
| Olot tumani | 141 087,5 | 108,9 | 1439,7 |
| Peshko' tumani | 141 087,5 | 108,9 | 1439,7 |
| Romitan tumani | 141 087,5 | 108,9 | 1439,7 |
| Shofirkon tumani | 134 582,6 | 109,5 | 768,2 |
| Qorako'l tumani | 172 231,9 | 107,6 | 1061,8 |
| Qorovulbozor tumani | 101 065,8 | 100,2 | 5583,7 |
| G'ijduvon tumani | 506 090,9 | 109,6 | 1683,6 |
| shaharlar: | | | |
| Buxoro shahri | 3 514 205,3 | 113,5 | 12 604,8 |
| Kogon shahri | 193 042,1 | 107,6 | 3175,0 |

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 526,0 ming so'mga oshdi va 3 034,4 ming so'mga teng bo'ldi, o'sishi 9,8 % ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Buxoro shahri etakchi o'rinni egallaydi. Bu erda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 12 604,8 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.

Shofirkon (768,2 ming so'm), Jondor (847,8 ming so'm) va Qorako'l (1061,8 ming so'm) tumanlarida boshqa shahar va tumanlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi past.

2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 407,4 ming so'mga oshdi. Buxoro shahrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 449,3 ming so'mga oshdi. Shu bilan birga, shu hudud bo'yicha o'tgan davr (2019-yil yanvar-avgust oylari) ga nisbatan 1 412,8 ming so'mga o'sish kuzatilmoqda.

2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlarining oshishi



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Kogon shahri (474,1 ming. so'm), Qorovulbozor (467,0 ming. so'm), Kogon (268,8 ming. so'm), G'ijduvon (267,0 ming. so'm) va Vobkent (229,8 ming. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Qorovulbozor (99,1 %), Qorako'l (105,8 %), Romitan (106,0 %) tumanlari va Kogon shahrida (106,7 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Mamlakatimizda postindustriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanishi bilan xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora o'sib boradi, chunki aholining ehtiyojlari doimiy ravishda o'sib boradi va ularning xilma-xilligi doimiy ravishda kengayib boradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

65-223-79-41